GLOBALLASHUV SHAROITIDA MINTAQAVIY ENERGETIK XAVFSIZLIKNING ASOSIY OMILLARI: ENERGIYA RESURSLARI

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni global energiya talabi va resurslar taqsimotini keskin o‘zgartirib, mintaqaviy energetik xavfsizlik masalalarini yanada murakkablashtirmoqda. Ushbu maqolada energetik xavfsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida neft va tabiiy gaz zaxiralari, ularning strategik joylashuvi tahlil qilingan. Maqolada IEA, OPEC va World Energy Outlook 2025 hisobotlariga tayanib, global energiya talabining o‘sishi, resurslar taqsimotidagi notekislik va mintaqaviy raqobatning energetik xavfsizlikka ta’sirini ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlikning ko‘p qirrali va kompleks tabiatini aks ettiradi hamda uning iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, mintaqaviy energetik xavfsizlik, energiya resurslari, neft va gaz zaxiralari, strategik transport yo‘llari, geosiyosiy raqobat, energetik barqarorlik, OPEC, IEA, global energiya bozori.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyoti va siyosiy tizimining yanada chuqur integratsiyalashuvini ta’minlab, energiya resurslariga bo‘lgan talabning keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Davlatlar va mintaqalar o‘z energetik xavfsizligini ta’minlash uchun nafaqat resurslar bilan ta’minlangan hududlarga bo‘lgan siyosiy e’tiborini kuchaytirmoqda, balki strategik transport yo‘llari, narx barqarorligi va infratuzilma xavfsizligini ham muhim omil sifatida hisobga olmoqda. Mintaqaviy energetik xavfsizlikga nisbatan mavjud konseptual yondashuvlardan kelib chiqqan holda, uning mohiyati va geosiyosiy jihatlarini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator asosiy omillar orqali izohlash mumkin. Ushbu omillar nafaqat global, balki mintaqaviy darajada ham energetik xavfsizlikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, energetik xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida energetik zaxiralar, jumladan, neft va tabiiy gaz resurslarining mavjudligi, ularning strategik joylashuvi hamda global energiya bozoriga ko‘rsatadigan ta’siri e’tiborga olinadi. Resurslarga boy hududlarning geografik joylashuvi ko‘pincha mintaqaviy va global geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lib, energetik xavfsizlikni strategik masalaga aylantiradi.

So‘nggi yillarda global energetika bozorida kuzatilayotgan statistik o‘zgarishlar energetik xavfsizlikning mohiyatini sifat jihatidan o‘zgartirib, uni yanada murakkab va ko‘p darajali muammoga aylantirmoqda. IEA, EI va OPEC tomonidan keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, global energiya talabi izchil o‘sishda davom etayotgan bo‘lsa-da, ushbu o‘sish hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanmoqda. Aynan mana shu notekislik mintaqaviy energetik xavfsizlik tizimida yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, IEAning rasmiy “Global Energy Review 2025”[1] hisobotiga ko‘ra, jahon energetika talabi 2024-yilda 2.2 % ga o‘sdi, bu o‘sish so‘nggi o‘n yillik o‘rtacha darajadan ancha yuqoridir. Talabdagi o‘sish barcha yoqilg‘i turlari va texnologiyalar bo‘yicha kuzatilgan bo‘lib, elektr energiyasiga bo‘lgan talab eng yuqori sur’at bilan (4.3 %) o‘sdi, bu esa global YaIM o‘sishidan ham yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Energiya ta’minotida qayta tiklanuvchi manbalar eng katta o‘sish ulushini egalladi (38 %), undan keyin tabiiy gaz (28 %), ko‘mir (15 %), neft (11 %) va yadro energiyasi (8 %) joy oldi. Shuningdek, rivojlanayotgan va o‘sib borayotgan iqtisodiyotlar global talab o‘sishining 80 % dan ortig‘ini qamrab oldi, bunda Xitoy va Hindiston yetakchi rolni bajardi.

World Energy Outlook 2025 hisobotida [2] global energetika tizimining 2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish ssenariylari bayon etilgan. Energiya samaradorligi oshishi global energiya talabini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya va yadro energetikasi ulushi ortishi kutilmoqda. Ssenariylarga ko‘ra, birlamchi yoqilg‘ilarning ulushi sekin kamayishi mumkin. Mazkur ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, global energetika talabi o‘sishda davom etmoqda va bu o‘sish rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga

bog‘liqdir. Ushbu tendensiya energetik xavfsizlik nuqtayi nazaridan bir qator yangi xavflarni kuchaytiradi. Birinchidan, energiya iste’molining asosiy markazi an’anaviy sanoati rivojlangan davlatlardan Osiyo va Afrika mintaqalariga siljimoqda. Bu esa energiya resurslariga boy hududlar, xususan Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Afrika ustidan geosiyosiy raqobatning keskinlashuviga olib kelmoqda. Demak, statistik o‘sish nafaqat iqtisodiy faollikni, balki mintaqalararo siyosiy bosim va strategik raqobatni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, energiya talabining o‘sishi qayta tiklanuvchi manbalar ulushining ortishi bilan birga kechayotgan bo‘lsa-da, global energetika balansida neft va tabiiy gazning ustuvor mavqei saqlanib qolmoqda. Energy Institute “Statistical Review of World Energy 2025”[3] hisobotiga ko‘ra, birlamchi energiya ta’minotining qariyb 86 foizi hanuz an’anaviy yoqilg‘ilar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu holat mintaqaviy energetik xavfsizlikda yangi paradoksni yuzaga keltiradi: bir tomondan energiya tizimi diversifikatsiyalanmoqda, ikkinchi tomondan esa asosiy ta’minot haligacha siyosiy jihatdan beqaror yoki geosiyosiy ziddiyatlar mavjud bo‘lgan mintaqalarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Natijada, energiya tranziti va ta’minot zanjirlarining xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikning eng zaif bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Uchinchidan, statistik ma’lumotlar mintaqalar o‘rtasida energetik xavfsizlik bo‘yicha yutayotgan va zaiflashayotgan hududlarni aniq ko‘rsatib bermoqda**.** Masalan, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfazi mamlakatlari global neft zaxiralarining asosiy qismini nazorat qilgan holda energetik xavfsizlikning “taklif tomoni”da strategik ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Jumladan, OPEC “Annual Statistical Bulletin 2025”[4] ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning oxirigacha global tasdiqlangan neft zaxiralari taxminan 1 567 milliard barrelga yetdi. Bu zaxiralarning katta qismi Fors ko‘rfazi va Yaqin Sharq mintaqasida jamlanganligi aniqlanadi. OPECga a’zo davlatlar dunyo neft zaxiralarining taxminan 79 % atrofida ulushiga ega bo‘lib, bu mintaqaning neft bo‘yicha strategik rolini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gaz zaxiralari bo‘yicha ham yirik mintaqaviy konsentratsiya mavjud. OPECning gaz bo‘yicha statistik ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rganilgan yillar davomida Yaqin Sharq va Rossiya kabi mintaqalar jahon tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralarida yetakchi o‘rin tutadi**.** Bu esa global energetika ta’minotida bu mintaqalarning ustun ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, Saudiya Arabistoni dunyo neft zaxiralarining 17,2 % , Eron esa 9,1 % ni egallaydi. Shu bilan birga, Fors ko‘rfazi mamlakatlarining jami zaxiralari global neft zaxiralarining taxminan 60 % atrofida joylashgan. Saudiya Arabistonida dunyo neft zaxiralarining 17 % to‘planganligi bu davlatning jahon energetika siyosatidagi strategik ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha yetakchi davlatlar qatorida Rossiya (19,9 %), Eron (17,1 %) va Qatar (13,1 %) turadi. Ushbu uch davlat birgalikda jahon gaz zaxiralarining 50 % ga yaqin qismini nazorat qiladi. Shuningdek, Fors ko‘rfazi mamlakatlari gaz zaxiralari bo‘yicha ham global taqsimotda muhim rol o‘ynaydi [5].

Jahon neft va gaz eksporti nuqtayi nazaridan ham Fors ko‘rfazi mamlakatlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Hisobotlar bo‘yicha ushbu davlatlar jahon neft eksportining 28 % ini, gaz eksportining esa 12 % ini ta’minlaydi. Ushbu statistika shuni ko‘rsatadiki, Yaqin Sharq, Fors ko‘rfazi mamlakatlari va Rossiya kabi davlatlar global energetik barqarorlik va geosiyosiy siyosatning shakllanishida strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari, xususan Xitoy va Hindiston, energiya iste’molining keskin o‘sishi tufayli importga yuqori darajada qaram bo‘lib qolmoqda. Bu esa ularning mintaqaviy energetik xavfsizligini tashqi omillarga, jumladan tranzit yo‘llari xavfsizligi va eksportyor davlatlar bilan siyosiy munosabatlarga kuchli darajada bog‘lab qo‘ymoqda.

Markaziy Osiyo va ayrim Afrika davlatlari misolida esa energetik xavfsizlikning nisbatan murakkab, ammo istiqbolli modeli kuzatiladi. Ushbu mintaqalar katta zaxiralarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning energetik xavfsizlikdagi real og‘irligi eksport infratuzilmasi, tranzit yo‘llari va yirik iste’molchilar bilan munosabatlar xarakteriga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Natijada, resurslarga egalikning o‘zi yetarli bo‘lmay, ularni bozorga xavfsiz va barqaror chiqarish imkoniyati mintaqaviy energetik xavfsizlikning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

Shunday qilib, statistik ma’lumotlar mintaqaviy energetik xavfsizlikni faqat raqamlar majmui sifatida emas, balki kuchlar muvozanatining qayta taqsimlanishini aks ettiruvchi indikatorlar tizimi

sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Global energiya talabining o‘sishi, resurslar va iste’mol geografiyasining nomutanosibligi, transport yo‘llari va narxlar beqarorligi mintaqaviy energetik xavfsizlikda yangi xavflarni kuchaytirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan shu jarayonlar ayrim mintaqalarning strategik pozitsiyasini mustahkamlab, boshqalarini esa tashqi energiya ta’minotiga yanada qaram holga keltirmoqda.

Demak, energetik xavfsizlikning asosiy elementi bo‘lgan neft-gaz zaxiralari uchun global raqobat sharoitida asosiy e’tibor zaxiralarga egalik qilish, neftga boy mintaqalarda mustahkam o‘rnashish, neft va gaz resurslariga boy davlatlar bilan samarali va mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va geografik yaqinlashuvni ta’minlashga qaratilayotganligi energetik xavfsizlikning geosiyosiy jihatlarini namoyon qiladi. Ba’zi bir tadqiqotchilar e’tiroficha, o‘tgan oxirgi yillarda ommaviy axborot vositalari va mutaxassislarning energetika sohasidagi krizislar to‘g‘risida tashvishli mulohazalari, uglevodorod zaxiralarining yetishmasligi va muqobil manbalarni topish masalasidagi inqirozlar o‘zining to‘liq asosiga ega emas. Bu boradagi muammoning asosi yer ostidagi zaxiralarning tugab borishi bilan emas balki yer ustidagi voqelik, ya’ni siyosat bilan bog‘liqdir[6].

Neft -gaz sohasidagi energetik xavfsizlikning geosiyosiy jihatlari ayniqsa energiya resurslariga boy mintaqalarda yirik davlatlarning manfaatlari to‘qnashuvining keskinlashishi natijasida yanada ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Jahon energetika bozorida kuzatilayotgan bir qator tendensiyalar, xususan, jahon miqyosida energiya iste’moli darajasining ortib borayotganligi, energetik raqobatning mintaqaviy nizo shakliga kirayotganligi, davlatlarning energetik ittifoqlar tuzishga intilishlari natijasida energetika tiziminining geosiyosiy xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Iqtisodiy taraqqiyotning energetik resurslarga bog‘liqligi kuchayishi natijasida dunyo mamlakatlarining uglevodorodga boy mintaqalarga bo‘lgan qiziqishi va ta’siri ham o‘z navbatida oshib bormoqda. Bunga sabab davlatlarning zamonaviy xalqaro va milliy energetik siyosati yaxshi qo‘shnichilik, umumiy manfaatlarni anglash va xalqaro xuquq normalariga amal qilish kabi qadriyatlarning e’tirof etilishiga emas, balki davlatlarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari va milliy manfaatlarining geosiyosiy imperativlariga asoslanishidadir. Shuning uchun neft va tabiiy gaz zaxiralariga ega, yoqilg‘i - energetika kompleksi rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik masalasi geoiqtisodiy, geosiyosiy nuqtai nazardan juda muhim hisoblanadi[7].

Xulosa qilganda, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlikning samarali ta’minlanishi ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Avvalo, global energiya talabining oshishi va resurslar geografiyasidagi notekis taqsimlanish davlatlar va mintaqalar o‘rtasida strategik raqobatni kuchaytiradi, shu bilan birga energetik xavfsizlikni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va geosiyosiy omil sifatida ham belgilaydi. Umuman olganda, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlik konsepsiyasi iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy omillarni uyg‘unlashtiruvchi ko‘p qirrali tizim sifatida shakllanadi. Uning samarali ta’minlanishi uchun energiya resurslarining mavjudligi, transport va ta’minot infratuzilmasining barqarorligi, narxlarning siyosiy va iqtisodiy stabilligi hamda investitsion va texnologik chora-tadbirlar birgalikda hisobga olinishi zarur. Shu tariqa, mintaqaviy energetik xavfsizlik milliy siyosat va xalqaro hamkorlik mexanizmlari, iqtisodiy strategiyalar va texnologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IEA. Global Energy Review 2025. –Paris: International Energy Agency, 2025. // https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2025

2. IEA. World Energy Outlook 2025. – Paris: International Energy Agency, 2025.

3. Energy Institute. Statistical Review of World Energy 2025. – London: Energy Institute, 2025. // https://www.energyinst.org/statistical-review

4. OPEC. Annual Statistical Bulletin 2025. –Vienna: Organization of the Petroleum Exporting Countries, 2025. //https://publications.opec.org/annual-statistical-bulletin

5. Planète Énergies. Global natural gas reserves. –Paris: Planète Énergies, 2025. // https://www.planete-energies.com/en/media/figures/global-natural-gas-reserves

6. Симония Н.А. На пути повышения энергетической безопасности и эффективности // Вестник международных организаций. – 2008. –№ 5 (20). – С.33-35.

7. Жураев С.А., Касымова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Т. : Akademiya, 2008. – С.223.